

V.SHEKSPIRNING “OTELLO” FOJIASIDA TUSHNING YORITILISHI

Qurbonova Nodira Roziqovna,

Buxoro davlat universiteti,

f.f.f.d (PhD)

n.r.qurbonova@buxdu.uz

Ro‘ziyeva Dilyayra Nurmurodovna

2-kurs magistratura talabasi

Buxoro davlat universiteti,

ruziyevadilyayra300@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz mashhur ingliz yozuvchisi V. Shekspirning “Otello” asarida tush tasviridan mahorat ila foydalanganiga govoh bo‘lasiz. Uning qalamiga mansub ushbu fojiada boshqa asarlaridan farqli o‘laroq “tush” motivi aynan kelajakda sodir bo‘ladigan noxush hodisalardan ogohlik berish maqsadida qo‘llanilgan. Ushbu maqolada asar qahramolarining ko‘rgan tushlaridan misollar va izohlar bilan tanishishingiz mumkindir.

Kalit so‘zlar: tush, tush tasviri, tush voqealari, ta’birnoma, taqdir, bashorat, kelajak.

Shekspirdan avlodlarga 37 ta sahna asari, ko‘plab she‘rlar va dostonlar meros bo‘lib qoldi. U buyuk insonparvar edi. Uning asarlarida xalqlar orasidagi do‘stlik, totuvlik ulug‘lanadi, insonlar hayotiga soya soluvchi har qanday milliy, diniy, irqiy ayirmachiliklar keskin qoralanadi. Buyuk ijodkor insonlarni hamisha halol, insofli, adolatli bo‘lishga undaydi. Vilyam Shekspir bundan to‘rt asr muqaddam yashab, ijod etdi. Shundan beri dunyoga necha nasllar kelib ketdi. Ammo Shekspir ijodi hamon biz bilan yashab kelmoqda. Uning asarlari million-million tomoshabinlar, o‘quvchilar qalbiga zavqu shavq bag‘ishlab, ingliz mumtoz adabiyoti dovrug‘ini hamon dunyoga taratib turibdi.

Shekspir davri teatri hozirgisiga uncha o‘xshamaydi. Sayyoh aktyorlar, asosan, mehmonxona hovlilarida tomosha ko‘rsatishar, tomoshabinlar oldindan, yon tomondan hamda mehmonxona balkonlaridan sahnani tomosha qilardilar. XVI asrdagi Londonning doim uy teatrlari ham ana shunday qurilgan bo‘lib, parda va dekoratsiyalari bo‘lmagan ochiq maydonchadan iborat edi. Aktyorlar sahnaga orqa tomondagi eshikdan kirar edilar, tomoshabinlar esa hatto ba‘zan sahnaga ham chiqib o‘tirardilar. Tomoshada ayollar qatnashmasdi, teatrga kelgan ayollar yengiltabiat

hisoblanardi. Ba'zi gap-so'zdan qo'rqmaydigan kiborli ayollar teatrda kelishga jur'at qilardilar, lekin ular ham yuzlarini niqob bilan to'sib olardilar. Aktyorlar ichida ham ayollar yo'q edi. Dezdemon va Ofeliya rollarini chiroyli o'spirin yigitchalar ijro etardilar. Shekspir biograflarining ma'lumotlariga qaraganda uning eng yaxshi roli Hamlet otasining arvohi bo'lgan. U qirollar rolini o'ynagani ham aytilgan. Bunday rollar esa faqat eng yaxshi aktyorlarga topshirilgan. Bu esa Shekspir yomon ijrochi bo'lmaganidan dalolat beradi.

Shekspirning barcha yetuk tragediyalarida sahnada tasvirlangan voqealar tomoshabindan asrlar qa'riga - antik davrga yoki afsonaviy o'rta asrlarga suriladi. Bunday xronologik masofa shoirga zamonaviylik ilgari surgan eng katta va o'tkir muammolarni umumlashgan shaklda hal qila olishi uchun zarur edi. Va faqat Otello bu borada istisno. Asarning bunday qurilishi osongina Otelloni sof shaxsiy fojia sifatida tahlil qilishga olib kelishi mumkin. Biroq, "Otello"dagi intim va shaxsiy prinsipning har qanday bo'rttirib ko'rsatilishi, bu asarning boshqa jihatlariga ziyon yetkazishi, pirovardida, Shekspir fojiasini rashk dramasi bilan cheklashga urinishga aylanib qoladi. To'g'ri, butun dunyoning og'zaki qo'llanilishida Otello nomi uzoq vaqtdan beri hasadgo'y odamning sinonimiga aylangan. Lekin Shekspir tragediyasidagi hasad mavzusi ikkinchi darajali element sifatida bo'lmasa, hech bo'lmaganda asarning g'oyaviy teranligini belgilovchi murakkabroq muammolarning hosilasi sifatida namoyon bo'ladi.

Venetsiya tsivilizatsiyasining turli xil mahsulotlari bo'lgan tasvirlar galereyasi uning eng dahshatli vakili - Iago tasviri bilan bezatilgan. Spektakl matni Iagoning tarjimai holini butunlay qayta tiklashga imkon beradi. Biroq, bu holatda, asosan, o'z bayonotlariga tayanishi kerak; va Iagoning ruhining xususiyatlari shundayki, uning ko'pgina bayonotlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak.

Roderigo Sir, sir, sir!

....Of here and everywhere. Straight satisfy yourself.

If she be in her chamber or your house,

Let loose on me the justice of the state

For thus deluding you.

Brabantio Strike on the tinder, ho!

Give me a taper; call up my all people.

This accident is not unlike my dream;

Belief of it oppresses me already.

Light, I say! Light!.....

Yuqorida keltirilgan misolda ota mehriга guvoh bo‘lishimiz mumkin. Zotan qaysi davr yoki makon bo‘lmasin ota –ona mehr-u muhabbati aslo o‘zgarmagay. Shekspir ham mana shu muhabbatni Dezdemonning otasi timsolida tasvirlab bergan. Hali qizi uyidan qochib ketmagan chog‘larda ota g‘oyibdan tushi orqali kelajakdan ogoh bo‘ladi va shu onda “|Ko‘rgan tushlarim ro‘yo bo‘lsaydi” deb iltijo qiladi.

*Othello Give me a living reason she’s disloyal.
Iago I do not like the office;
...I could not sleep.
There are a kind of men so loose of soul
That in their sleeps will mutter their affairs.
One of this kind is Cassio.
In sleep I heard him say "Sweet Desdemona,
Let us be wary, let us hide our loves";
And then, sir, would he gripe and wring my hand,
Othello O monstrous, monstrous!
Iago Nay, this was but his dream....*

Tragediya nafaqat sadoqat hamda vafo, balki ishonuvchanlik, aldov va qasos masalalarini ham birdek qamrab oladi. Bu yerdagi muammoni bir necha bosqichlarda kuzatib, tahlil etish mumkin. Inson ruhiyati bosqichida – kishi xarakterining nuqsonlarini; o‘zaro munosabatlar bosqichida – manfaatlar o‘rtasidagi kurashni; undan ham yirikroq bosqichda esa – jamiyat pok muhabbat va munosabatlar uchun xavfli makon ekanligini kuzatar ekansiz, asar faqatgina Dezdemonna yoki Otelloning emas, balki muhabbat hamda hayotga bo‘lgan ishonchning halokatiga ishora qilayotgandek tuyulaveradi.

Kishiga tushida u uyg‘oqligida qilgan ishlarga qat’iy baho beriladi va kelgusidagi hodisalardan ogoh etiladi. Shu boisdan Shekspir qahramoni Otello : “Tush bo‘lsa ham bir gaplardan xabar beradi” deydi. Tush ko‘ruvchi ta’burchiga o‘z tushini imkon qadar batafsil, buzmasdan bayon etishining muhimdir. Chunki har bir ko‘rilgan tush qatorida to‘qilgan tush ham amalda ro‘y berishi mumkin, degan qat’iy ishonch mavjud. Ana shu mavhum xabar odamni qo‘rquvga soladi. Odam har qanday ish, yumushning mashaqqatlarini boshiga tushgachgina his qiladi. Kishi issiq-sovuqning qadrini, ochlik, kasallik azobini ularga duch kelgan paytida chinakamiga sezadi.

Dezdemonasiz hayot mumkin emas degan tuyg‘u Otelloda xotinini qatl qilish qaroridan ancha oldin paydo bo‘ladi. Birinchi marta Dezdemonani yo‘qotishi mumkinligini o‘ylab, Otello uni qo‘lga olinmagan qush kabi ozod qilishga tayyor. Ammo u buning uchun Dezdemonani ushlab turgan rishtalarni uzish kerakligini biladi.

Otello ham qotillikdan boshqa iloj koʻrmas. Ammo aslida ham u haq edimi? Barchamizga maʼlumki, yoʻq, Otello adashdi, uning soddaligidan foydalangan Yago oʻz manfaatlarini koʻzlab, uni aldagan edi. Shekspir inson ruhiyatining nozik tomonlarini ochiqlar ekan, nafaqat ishonch va sadoqat eng muhim xislatlar ekanini, balki insonning ezgu xislatlarini (misol, soddaligi) uning oʻziga qarshi ishlatish orqali uni batamom halokatga uchratish mumkinligini koʻrsatib berdi.

Yuzaki qaraganda, rashk tufayli sodir etilgan oddiy qotillik boʻlib koʻringani bilan, bu fojiaiy harakat zamirida oʻz hayoti tizginini qoʻldan boy bergan, munosabatlardagi muvozanatning yoʻqotilishiga duch kelgan qahramonning bu kabi tartibsizliklarga qarshi isyoni yotadi. Otello isyon qildi. U pok muhabbatning toptalishiga qarshi isyon qildi. Nafaqat insonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, balki butun olam mavjudligining asosida tartib va qonun-qoidalar yotishini hisobga olib, muhabbatning ham oʻz qonunlari borligini anglab yetish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://shakespeare.folger.edu/>
2. Muhammadjon Xolbekov. „Shekspir bepoyon“. „Oʻzbekistonadabiyoti va sanʼati“ gazetasi, №9, 2009. (28-fevral2014-yil).
3. Harold Bloom. The Sonnets (Bloom’s Shakespeare Through the ages) II Chelsea House Publications, 2008.P. 184;
4. Shakespecire W. The Tempest I W. Shakespeare. -Irvine, California, 2004.
5. Kurbonova N.R and Mustafoeva M .A// Origin and f eatures of the sonnet genre, In ternational Journal of EducM ion. Social Science & H umanities. FARS Publishers Vol.11,/ssues 01, 22-January 2022- 7p. <https://farspublishers.org/index.php/lijessh/articleview/256>